

**MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TURKIY
TUB SO‘ZLARGA YANGICHA QARASH**

(M.M. Mirtojiyevning “Turkiy tub so‘zlar tadqiqi” kitobi misolida)

**A NEW LOOK AT THE OLD TURKIC ROOT WORD IN THE
UZBEK LANGUAGE**

Durdona MAHKAMOVA^{*}
Nodirbek JO‘RAQO‘ZIYEV^{**}

Özet

Köklü kelimeler, genellikle kelimenin ana parçalarıdır. Türk dilinde temel morfemi temel kelime ile eşleştirebiliriz. Türk topluluklarının ve toplumsal yaşamın etkisi altında oluşan Türk dili, dilde yansyan farklı tarihsel katmanlara sahiptir. Türk kökleri, Türk dilinin doğusu, oluşumu ve gelişiminin ana kaynağıdır. Ayrıca, köklü kelimeler insanların tarihini ve geleneklerini sunmada önemli bir rol oynamaktadır. Bu nedenle, bu konu Türkoloji çalışmalarında önde gelen konulardan biridir.

Taşkent’tे 2017 yılında, Prof. Dr. Miraziz Mirtaciyev’ın çalışması "Türk kökenli kelimelerin incelenmesi" yayınlandı. Bu çalışma Türk dillerinden çok sayıda örnek içeriyor ve önemli bir küresel öneme sahiptir, çünkü şu anda henüz kelimeler üzerinde yapılan önemli bir çalışma yoktur. 27 Türk lehçelerinde yirmi üç kelime bulundu.

Anahtar kelimeler: kök, Türk dilleri, Özbekçe, Kazakça, köklü kelimeler, fonetik, ünlü uyumu, inceleme.

Summary

The root words are the main part of the word. In the Turkic language, you can equate the basic morpheme with the basic word. The Turkic language, formed under the influence of the Turkic communities and social life, has different historical layers, reflected in the language. Turkic roots are the main source of genesis, formation and development of the Turkic language. In addition, root words play an important role in presenting the history and traditions of the people. Therefore, this topic is one of the leading topics in Turkic studies.

The work of Professor Miraziz Mirtaciyev "Study of words of Turkic origin" was published in 2017 in Tashkent. This work contains a lot of examples from the Turkic

*Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zbek filologiyasi fakulteti o‘qituvchisi. Toshkent, O‘zbekiston.

Teacher of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Uzbek Philology Faculty. Tashkent, Uzbekistan.

** ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi. Toshkent, O‘zbekiston.

2 nd year student of the Uzbek philology faculty. Tashkent, Uzbekistan. E-mail:

nodirbekjurakuzyev@mail.ru

languages and has an important global significance, because at the moment there are no such significant works on words yet. Twenty-three words were found in 27 Turkic languages.

Key words: root, Turkic languages, Uzbek language, Kazakh language, root words, phonetics, synharmonism, study.

Kirish

O‘zbek tilshunosligida tub so‘z leksemaning barcha yasovchi morfemadan holi qismi sifatida qaraladi. Tub so‘zlar odatda so‘zning o‘zak qismini tashkil etadi.

Turkiy tillarda o‘zak morfema bilan o‘zak so‘zni tenglashtirib fikr yuritish bermalol mumkin. Chunki turkiy so‘zlarning kommunikatsiyasidagi holati ma’noli qismlarga ajratilar ekan, uning birinchi qismi o‘z mustaqil ma’nosiga ega bo‘lib, o‘zak morfema deb qaraladi. Shu o‘zak morfema o‘zak so‘z deb qaralish barobarida turkiy tillarda uning lug‘aviyligidan kelib chiqib “tub so‘z” termini bilan atalgan (Mirtojiyev, 2017: 7).

Demak, so‘z hech qanday ko‘makchi morfemasiz qismiga va lug‘aviy shakl yasovchilardangina iborat tarkibga ega bo‘lsa, u o‘zida tub so‘zning talablarini aks ettirgan bo‘ladi. Masalan, yasovchi morfemadan holi so‘z bo‘lgan “kitob” so‘zi bilan faqat lug‘aviy shakl yasovchilardangina iborat “kitoblarni” so‘zi yuqoridagi fikrlarga asos bo‘la oladi.

Strukturasida yasovchi komponent bo‘lmagan va ma’nosi mavjud strukturaning ma’nosi asosida kelib chiqadigan (motivlanadigan, asoslanadigan) so‘zlar tub so‘z o‘rganish sohasining obyekti hisoblanadi (Hojiyev, 1989: 27). Har bir tilning boshqa sohalari, masalan, morfologiya, sintaksis sohalari o‘z sistemasiga ega bo‘lgani kabi uning tub so‘zni o‘rganish sohasi ham o‘z sistemasiga ega. Tub so‘zlarni o‘rganishda ana shu sistema tahlil etiladi.

Har qanday morfologik so‘z kuzatish bosqichida muayyan grammatik shaklda namoyon bo‘lar ekan, demak, faqat yasama so‘zlarga emas, tub so‘zlar ham ma’lum grammatik paradigma a’zosi sifatida morfema variantlari birligidan iborat bo‘ladi (Nurmonov, 1991: 69). So‘z yasalishi, o‘z navbatida, ma’lum bir maydonni tashkil qiladi. Shu maydonning paradigmasi qatoriga tub so‘zlar va ularning xususiyatlari ham kiritiladi. Tub so‘z o‘zida, yuqorida ta’kidlanganidek, faqat o‘zaklik xususiyatini emas, balki ma’lum bir grammatik ko‘rsatkichlarni aks ettira oladi. Jumladan, “*to‘lish*”, “*qizilroq*”, “*ikkitalab*”, “*qalamgina*” kabi

so‘zlarda morfologik vositalar ishtirok etgan. Biroq biz ularni tub so‘zlar qatoriga bemalol kirita olamiz. Chunki ularda yasalishlik xususiyati mavjud emas.

Turkiy tillar boyligining shunday qatlami ham borki, u shu turkiy xalqlar bir jamoa bo‘lib yashaganligi va shu jamoa birlashuvida, o‘zaro munosabatida sabab ekanligi, qanday doirada aloqa qilganlarini bildiruvchi detallarni ko‘rsatib beradi. Buning uchun turkiy tub so‘zlarda yetarli fakt bor, degan fikrni qozoq tilshunosi E. Z. Kajibekov ilgari surgan va Britaniya turkologi G. Klausondan tasdiqlovchi fikr keltirgan. (Кажибеков 1986: 3). “Har qanday tilda: yunon, lotin, arab tiliga o‘xhash mumtoz tillarni ham o‘rganish uchun, albatta, fakt topiladi” (Clauson, 1963: 3-4). Turkiy tub so‘zlar turkiy tillar kelib chiqishi, shakllanish, taraqqiyotini ko‘rsatuvchi, shu tilda muloqot yurituvchi xalqning tarixiy va hayotiy kechimini yorituvchi til fakti ekan, uning bor xususiyati bilan tadqiq etish, o‘rganish turkologiya uchun zaruriy masala bo‘lib qoladi. Buning uchun, avvalo “*tub so‘z*” tushunchasining mohiyatini tushunish zarur.

Asosiy qism. O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganidan so‘ng, barcha sohalarda ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Xususan, o‘zbek adabiy tilimiz rus tili ta’siridan ozod etildi. Bu esa, shubhasiz, tilshunoslik taraqqiyotiga nihoyatda katta turtki bo‘ldi. Bu sohaning tarixi, hozirgi kundagi ko‘rinishi asil holida tiklanib istiqboli uchun yorqin zamin hozirlandi. Bu o‘rinda olimlarimiz tomonidan olib borilgan izlanishlarning ahamiyati beqiyos.

2017-yil professor Mirtojiyev Miraziz Mirtojiyevichning “Turkiy tub so‘zlar tadqiqi” asari nashrdan chiqdi. Bu asar shu paytgacha turkiy tub so‘zlar haqida jiddiy izlanishlar olib borilmaganini, uning bu sohada yangilik ekanini hisobga olsak, turkiy tillar doirasidagi muhim masalalarni hal etuvchi qimmatli manba hisoblanadi. Ushbu asar 27 turkiy tillarning 23 tasidan yetarli ma’lumot to‘plab turkiy tub so‘zlarni tadqiq etadi. Asar o‘zida karagas, chulum, tuman, mesxet tillari haqidagi tadqiqotni yetaricha aks ettirmagan. Biroq tahlil uchun keltiriladigan misollar turli turkiy tillardan berilishini hisobga olib, ifoda etuvchi yozuvni umumlashtiruvchi transkripsiya yaratilib, masalaga bir tizim ostida yondashilgan. Asar mundarijasiga qaralsa, avval turkiy tub so‘zlar tuzilishiga, keyin ular semantikasi, grammatisasi, konversiyasiga e’tibor berilib oxiri fonetikasi o‘rganilgan. Muallif mazkur tadqiqot ishi sof turkiy so‘zlar, so‘z yasovchi, so‘z o‘zgartiruvchi qo‘sishchalar etimologiyasi uchun qo‘llanma vazifasini ham o‘tab qolishini maqsad qilgan.

Professor M. M. Mirtojiyev turkiy tub so‘zlar asosan fe’l so‘z turkumida voqelanishini hisobga olib o‘z ishini turkiy tub fe’llar va ularning tuzilishini tahli qilishdan boshlaydi. Masalan, turkiy tub so‘zlar (ayniqsa, tub fe’llar) hosil bo‘lishida bir qonuniyat bor. Ular hosil bo‘lishida asosan undov yoki taqlid-tasvir muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlab o‘tadi. Jumladan, bir nechta turkiy tillarda qo‘llanadigan *qyw-*, *bar-*, *kel-*, *ket-* tub fe’llari asosida undov borligi aniq. Shuningdek, bir nechta turkiy tillarda qo‘llanadigan *qaq-*, *qar-*, *byr-*, kabi tub buyruq fe’llari asosida taqlid-tasvir o‘z aksini topgan. Shundan kelib chiqiladigan bo‘lsa, B. M. Yunusaliyev keltirilgan *maq-* va *man* tub fe’llari ham shundan holi holatda qolmaydi. Qadimda o‘t oldirish uchun toshni toshga urilgan. Undan chiqqan tovushni qozoq, qirg‘iz va umuman turkiylarning qipchoq lahjasiga mansub tillarida gaplashuvchilar tasavvurida “*maq*” etgan holda idrok etilgan. Ular tasavvuridagi shu idrok etilgan tovushga asoslanib, o‘sha kechimni yuzaga keltirish maqsadida unga ishora qilish uchun taqlidan *maq-* fe’lini hosil qilganlar. Shuning uchun ham turkiy tub fe’llar II shaxsga qaratilgan buyruq maylida bo‘ladi. Bu qonuniyatdir. Shu buyruq maylidagi tub fe’lni tuzish uchun taqlidan faqat *ma* qismini ajratib foydalanish va qo‘llash me’yorga sig‘ishmaydi (Mirtojiyev, 2017: 61).

Professor M. Mirtojiyevning fikricha, turkiy tub fe’llar haydash-chaqirish, imperativ, xitob ma’noli undov so‘zlarning verbalizatsiyasi ham bo‘ladi. Ular harakat-holat yoki, buyum faoliyatiga qaratilgan buyruq, xitob kabilar kechimida yuzaga chiqadi, o‘tadi. Turkiy tillarda harakat-holat yoki, buyum faoliyatini amalga oshirish xitob, buyruq bilan bog‘liq bo‘lishi bor hodisa (Usmonov, 1989: 92).

Olim turkiy tub so‘zlarning tuzilishi va tarkibi yuzasidan tadqiq etgan tahlillaridan o‘rganilgan turkiy so‘zlar uchun quyidagi umumiyl xulosalarga keldi:

1. Turkiy tub so‘zlar turkiy so‘zlarning, tarixiy-diaxronik nuqtayi nazardan, o‘zak morfemasidir.
2. Turkiy tillar agglutinativ bo‘lgani uchun, undagi so‘z o‘zaklari hamma vaqt erkin ekanligi bilan xarakterlanadi.
3. O‘zak so‘z uchun birlamchi morfema bo‘lib, ergash morfemalar uning semantikasi va qurilishiga monand tanlanib qo‘silib kelaveradi. Unga turli morfemalar qo‘silib, so‘zning mohiyatini turlicha namoyon eta oladi.
4. Turkiy tub so‘zlar faqat bir bo‘g‘inli bo‘ladi.U undosh bilan boshlanadi va deyarli yopiq tugaydi.

5. Turkiy tub so‘zlarning fonetik tarkibi tarixan asosan K+V+K tovush tartibi qurilishida bo‘lgan.

6. Birinchi va ikkinchi tovushlari bir xil bo‘lgan K+V+K tovush tarkibli turkiy so‘zlarni bir o‘zakdan yasalgan yasama so‘z deb ham qaraladi.

7. Turkiy tub so‘z qolipidagi turkiy so‘zlar ko‘p uchraydi. Ular ko‘proq biror nisbatdagi fe’lning anlauti sinkopasi hisobiga shakllanadi.

8. Turkiy tub so‘zlar ichida K+V+K tovush tarkibiga egalari ham bor. Ular nihoyatda kam miqdorda va taqlidiy-tasviriy so‘zlar, fe’llar, otlar, sifatlar doirasida bo‘ladi.

Qadimgi turkiy tilda ham so‘zlar tuzilishiga ko‘ra tub va yasamaga bo‘lingan. Professorlar Nasimxon Rahmonov va Qosimjon Sodiqovlar tomonidan yaratilgan “O‘zbek tili tarixi” asarida keltirilishicha, tub so‘zlarga asli muayyan ma’noni bildiruvchi morfem birlik sifatida qaralib, *ot*, *sifat*, *son*, *fe’l* singari mustaqil so‘z turkumlari ham, shuningdek, yordamchi so‘z turkumlari ham tub so‘z bo‘la olishi ta’kidlangan. Masalan, otlar: *и* – “*o’simlik, buta*”, *ot* – “*dori-darmon*”, *иг* – “*kasallik*”, *qaz* – “*g’oz*”, *qoc* – “*qo’y*”, *sxz* – “*so’z*”; fe’llar: *ba* – “*bog’la-*”, *te* – “*de-*”, *ay* – “*ayt*”, *uq* – “*uq*”, *al* – “*ol-*”, *ked* – “*kiy-*”, *ber* – “*ber*”, *ырк* – “*hurk*” va b (Rahmonov, Sodiqov, 2009: 107).

Professor M. Mirtojiyev turkiy tillardagi tub so‘zlarni tahlil qilar ekan, qozoq tilidagi tub so‘zlar haqida ham muhim xulosalarni keltirib o‘tadi. Xususan, qozoq tilidagi tub so‘zlarning fonetik qurilishiga alohida e’tibor beradi.

Qozoq tilidagi tub so‘zlar anlautida til oldi, til yon sirg’aluvchi *L* sonanti, lab-lab burun *m* sonanti, til oldi burun *n* sonanti, lab-lab portlovchi *b* jaranglisi, til oldi portlovchi *d* jaranglisi, til oldi qorishiq *m* jaranglisi, til oldi sirg’aluvchi *z* jaranglisi, til orqa portlovchi *k* jarangsizi, chuqur til orqa *q* jarangsizi, lab-lab portlovchi *p* jarangsizi, til oldi sirg’aluvchi *s* jarangsizi, til oldi portlovchi *t* jarangsizi, til oldi shipildoq *ε* jarangsizi kabi tovushlar mayjud. Bu tilda ko‘rinadiki, tub so‘zlar anlauti sifatida *l*, *m*, *n* dan iborat 3 sonant *b*, *d*, *m*, *z* dan iborat 4 jarangli, *k*, *q*, *p*, *s*, *t*, *ε* dan iborat 6 jarangsiz qo‘llangan. Qozoq tilidagi turkiy tub so‘zlar anlautida qoraqalpoq, no‘g‘ay tillaridan bir *l* sonanti, jarangli undoshlar hisobiga bir *m* qorishig‘i, *z* jaranglisi ortiq bo‘lgan holda, bir *g* jaranglisi kam. Qozoq tilidagi tub so‘zlar auslautida *r*, *l*, *m*, *n*, *m* sonantlari; *t*, *p*, *g*, *b*, *q* portlovchilari; *s*, *z*, *j*, *III*, *w* sirg’aluvchilari; *ε* shipildog‘i va *c* qorishig‘i kabi nutq tovushlaridan iborat bo‘ladi.

Qozoq tilidagi tub so‘zlar auslautida kelgan nutq tovushlari qoraqalpoq va no‘g‘ay tillari bilan, sonantlari jihatdan, aynan bir xil, lekin qozoq tilida qo‘llangan *g* portlovchisi, *c* qorishig‘i, *III w* sirg‘aluvchilari qoraqalpoq va no‘g‘ay tillari auslautida kuzatilmaydi. Bu ularagini auslautlarning qarluq lahjasidagi va o‘g‘uz lahjasidagi tillar auslauti ta‘siriga ma’lum daraja moslashganligini ko‘rsatadi. Lekin bu tarmoqdagi tillar o‘z auslautidagi tovushlarga ko‘ra uyg‘ur-o‘g‘uz tarmog‘iga yaqinligi bilan xarakterlanadi (Mirtojiyev, 2017: 369).

Turkiy tub so‘zlarning anlauti unlidir. Anlaut sifatida qo‘llanuvchi unlilar tor til oldi *i* va til orqa *ı* (*i*) dan, tor til oldi lablangan *u* va til orqa lablangan *u* dan, o‘rta keng til oldi *e* va o‘rta keng til orqa *o* dan, keng til oldi *a* va keng til orqa *a* dan iborat. Bu unlilarning qaysi biridir turkiy tub so‘zlarning anlautida o‘z o‘rnini topgan bo‘ladi. Lekin shuni ham aytish kerakki, bu unlilar singarmonizm talabi bilan yo til oldiga mansubi, yo til orqaga mansubi qo‘llanadi. Tilshunoslikda qayd etilishicha, o‘zbek tilida singarmonizm yo‘q (Baskakov, 1966: 308). O‘zbekistonda shaharlar ko‘p. N.A. Baskakov ham “ko‘pchilik shaharlarda” deb ko‘rsatgan. Lekin u aytganicha emas. N.A. Baskakovning fikrini Toshkent, Qo‘qon, Samarqand, Shahrisabz shaharlariga nisbatan qo‘llash mumkin. Bu shaharlar shevasida ham singarmonizm shevalari yo‘qolgan emas. Ular shevasida ham singarmonizm elementlari yorqin sezilib turadi. Adabiy til me’yorini belgilovchilar tildagi singarmonizmni asosan chetlab o‘tganlar. Imloda ham shunga amal qilingan. Adabiy til me’yorini belgilash subyektivdir. O‘zbek jonli tilida va uning barcha shevalarida singarmonizm mavjud va u amalda. O‘sha yetakchi shahar shevalarida ham u ko‘p elementlarini saqlagan. O‘zbek adabiy tili singarmonizmni amaliyotdan chiqarish ta’sirini barcha shevalarda ko‘rsatayotgan bo‘lsa ham, sezilarli darajada emas. Tilning mavjudligi uning kishilar o‘rtasidagi muloqot kechimi bilan o‘lchanadi. O‘zbek jonli tilida, ya’ni deyarli barcha shevalarida singarmonizm bor. Shunday ekan, O‘zbek tili singarmonizmdan holi bo‘lmaydi (Mirtojiyev, 2017: 374).

Muallif tub so‘zlarni tahlil qilish jarayonida ularning konversiyalashuviga ham alohida e’tibor beradi. Xususun, tub otlar deyilganda otlar o‘z qamroviga ot turkumiga ham, sifat turkumiga ham, ravish turkumiga ham oid so‘zlarning olinishini e’tiborda tutadi.

Bu til faktini Mahmud Koshg‘ariy *ot va fe’l so‘z juftliklari* deb tushunadi. Shunga ko‘ra, u bu fe’l otdan iborat bir xil fonetik tarkibga ega, bir-birini semantik taqozo etuvchi so‘z juftliklarini otga oidlarini lug‘atning ot turkumiga, fe’lga oidlarini *-di* qo‘shimchasi bilan lug‘atning fe’l

turkumiga mansub qismida beradi (Koshg‘ariy 1960, 1961, 1963). Alisher Navoiy ham bunday so‘z juftliklarini “Muhokamat ul-lug’atayn” asarida *alohida so‘zlarning bir xilligi*, deb beradi va namunalar keltiradi (Navoiy, 1948: 182). Shular qatorida muallifi noma’lum “At-tuhfatuz zakiyati fil-lug’atit turkiya”, Mahmud Zamahshariyning “Muqaddimat ul-lug’atayn”asari va V.V. Radlovning lug’ati kabilarni ko‘rsatish mumkin. Ularda fe’l va ot doirasidagi dastlabki omonimlar o‘z o‘rnini topgan¹. Ammo turkiy tillar yuzasidan tuzilgan mazkur lug’atlarda turkiy tub fe’llar ma’lum grammatik shakl: o‘tgan zamon shaklida, ot tub so‘zlar o‘zak holatida berilgan bo‘lsa ham, ular o‘zaklarining fonetik shakli va semantic o‘zaro aloqadorligi his etilishi bilan dastlabki omonim ekanligi yaqqol ko‘zga tashlanadi (Mirtojiyev, 2017: 278).

Professor M.M. Mirtojiyev turkiy tub so‘zlar o‘zidagi ma’lum tizim izchilligiga ko‘ra Hind-Yevropa, arab va hokazo til oilalaridagi tub so‘zlar tizimi izchilligiga nisbatan tub farqqa ega ekanligini ta’kidlab umumiyl xulosa sifatida quyidagilarni keltiradi:

-Turkiy tub so‘zlar asosan K+V+K tovushlaridan iborat tarkibga ega.

-Turkiy tub so‘zlarning auslaut undoshi qo‘sish undosh holatida bo‘lishi mumkin, bunda ular tub hisoblanmaydi. Chunki ular undoshining ikkinchisida grammatik ko‘rsatkich bo‘ladi.

-Turkiy tub so‘zlar, shubhasiz, o‘zi ifodalagan obyekt bilan umumiylikka ega bo‘ladi. Tushunchadagi belgi uning obyektini xarakterlovchi xususiyat bo‘ladi. Tub so‘zlar buyum yoki voqelik kechimining muhim belgisi e’tiborda tutilgan holda shakllangan bo‘ladi.

-Turkiy tub so‘zlar u ifoda etgan buyum yoki voqelik kechimida yuzaga kelgan tovush yoki tovushlar kompleksida ifoda topar ekan, u, ayniqsa, tub fe’llar shakllanishida kuzatiladi.

-Turkiy tub so‘zlar taqlidiy-tasviriy, undov so‘zlarning kommunikativ zaruriyatga ko‘ra konversiyasi bilan ot, sifat, ravish kabi tub so‘zlarni yaratar ekan, bu so‘zlar o‘z grammatik shakli bilan yuzaga kelgan bo‘ladi.

-Ma’lum semantik guruhdagi bir necha tub fe’l ot, sifat, ravish turkumlarida o‘z semantik yo‘ldoshlariga ega.

-Turkiy tillarda qo‘llanuvchi nutq tovushlari miqdori hozirgi turkiy tillarda qo‘llanuvchi nutq tovushlaridan ma’lum darajada farq qiladi.

¹ At-tuhfatuz zakiyati fil-lug’atit turkiya / mas’ul muh. F.Abdullayev. – T.: “Fan”, 1963; Zamahshariy M. Muqaddimat ul-lug’atayn / Asar qo‘lyozmasi manbai. TShI. fondi. – Toshkent, 1998; Радлов В. Опыт словаря тюрских наречий. I-IV. типогр. Имп. АН. 1893-1991.

-Turkiy tub so‘zlarning anlauti deyarli jarangsiz tovushlardan iborat bo‘lib, ularning ko‘pi o‘g‘uz lahjasiga mansub tillarda yoki unga qo‘shni tillarda jaranglisi bilan almashgan bo‘ladi (Mirtojiyev, 2017: 374).

Xulosa. Ushbu xulosalardan professor M.M. Mirtojiyev turkiy tub so‘zlarning tuzilishi, semantikasi, grammatikasi, konversiyasi va fonetik qurilishini tahlil qilar ekan, bunda u tub so‘zning shu sohalaridagi tarixi, taraqqiyot bosqichi va, albatta, istiqbolini nazarda tutgan holda izlanishlar olib borganini kuzatishimiz mumkin. Bu izlanish yillar davomida qo‘l urilmagan mulohazalar, o‘z yechimini topishi mushkul bo‘lib kelayotgan tilshunoslikning muammolarini hal etdi. Nafaqat tub so‘zlar, balki tilshunoslikning boshqa sohalari taraqqiyotiga “Turkiy tub so‘zlar tadqiqi” asari o‘z hissasini qo‘shadi. Bunda muallif turkiy tillar tub so‘zlarini qiyoslash jarayonida yangicha qarashlarni ilgari surgani tayanch vazifasini o‘taydi. Bundan tashqari, ushbu asar hozirgi kunda tobora dolzarb bo‘layotgan turkologiya (turkiy tillarni qiyoslash) va barcha turkiy xalqlar uchun ham birday ahamiyatlidir. Bu asarning yaratilishi nafaqat o‘zbek tilshunosligi va boshqa turkiy tillar tilshunosligida, balki turkiy tillarni o‘rganishga bel bog‘lagan boshqa xorij tilshunoslari uchun katta ahamiyatga ega. Chunki tilni o‘rganish uslubi, foydalanilgan yo‘nalish, boshqa tillar bilan qiyos, izlanish jarayonidagi tarjima jahon tilshunoslari uchun ibrat namunasi bo‘la oladi.

Adabiyotlar

- At-tuhfatuz zakiyati fil-lug‘atit turkiya. (1963). Mas’ul muh. F.Abdullayev. – T.: “Fan”.
- Clauson G. (1963). *The name Uygur* // Journal of the Royal Asiatic Society of Great Britain and Ireland. - P-3-14.
- Hojiyev A. (1989). “O‘zbek tili so‘z yasalishi”. – T.: “O‘qituvchi”.
- Koshg‘ariy M. *Devonu lug‘otit turk*. I-III. – T.: “Fan”, 1960, 1961, 1963.
- Mirtojiyev M. (2017). “Turkiy tub so‘zlar tadqiqi”. – T.: “Fan”.
- Navoiy A. (1948). *Tanlangan asarlar*. SH t. – T.: “O‘zdavnashr”.
- Nurmonov A. (1991). “So‘z haqida so‘z” // O‘TA. -№5. 67-72-betlar.
- Rahmonov N. Sodiqov Q. (2009). “O‘zbek tili tarixi”. – T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”.
- Usmonov S. (1989). “Undovlar va mimemalar”. – Toshkent.
- Басқаков Н. (1966). Введение в изучение тюркских языков. – Москва.
- Кажибеков Е. (1986). Глагольно-именная корреляция гомогенных корней в тюркских языках. Алма-Ата: Наука.
- Радлов В. (1893-1991). Опыт словаря тюркских наречий. I-IV. Типогр. Имп. Ан.

Түйіндеме

Тұбірлес сөздер, әдетте, сөздің негізгі бөлігі болып табылады. Түрік тіліндегі негізгі морфема мен негізгі сөздің тенденстіру арқылы ойлауга болады. Көптеген түрік қоғамдастықтарының өмірі мен көне заманнан бері өмір сүріп келе жатқандығынан туындаған түрік тілінің байлығын қалыптастыратын осындағы қабаттар бар және бұл жағдай тілде де көрініс табады. Түріктің тұп тамыры түркі тілінің пайда болуының, қалыптасуының және дамуының негізгі көзі болып табылады. Сондай-ақ, бұл тілде сойлейтін халықтардың тарихын және өмір салтын насиҳаттауда тұбірлес сөздердің өз орны бар. Сондықтан бұл тақырып түркітанудың жетекші тақырыптарының бірі болып табылады.

2017 жылы Ташкентте профессор Миразиз Миртажиевтің «Түркі текті сөздердің зерттелуі» атты еңбегі жарық көрді. Бұл еңбек бірнеше түркі тілдерінен мысалдар келтіре отырып ғылыми талдау жасалған маңызды жұмыс екендігі күмәнсіз, өйткені мұнда, 27 түрік тілінен 23 сөзге талдау жасалып зерттелген.

Кілт сөздер: тұбір, түркі тілдері, өзбекше, қазақша, тұбір сөздер, фонетика, сингармонизм, зерттеу.

(Махкамова Д., Журакузав Н. Тәуелсіздік кезеңіндегі өзбек тіл білімінде түркі текті сөздерге жаңаша көзқарас)

Аннотация

Однокоренные слова являются основной частью слова. В тюркском языке можно приравнять основную морфему к основному слову. Тюркский язык, образованный под влиянием тюркских сообществ и социальной жизни, имеет различные исторические слои, отражающиеся в языке. Тюркские корни являются основным источником генезиса, формирования и развития тюркского языка. Кроме того, однокоренные слова играют важную роль представлении истории и традиций народа. Поэтому данная тема является одной из ведущих тем в тюркологии.

В 2017 в Ташкенте была опубликована работа профессора Миразиза Миртажиева «Исследование слов тюркского происхождения». Эта работа содержит очень много примеров из тюркских языков и имеет важное мировое значение, потому что на данный момент таких значимых работ о словах еще нет. Выявлено 23 слова в 27 тюркских языках.

Ключевые слова: корень, тюркские языки, узбекский язык, казахский язык, однокоренные слова, фонетика, сингармонизм, исследование.

(Махкамова Д., Журакузав Н. Новый взгляд на слова тюркского происхождения в узбекском языкознании периода Независимости)